

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING  
ZAMONAVIY VA SAMARALI USULLARI

*Ergasheva Shaxnoza Anarqulovna  
Toshkent viloyati Piskent tumani 3-umumiy o'rta ta'lif maktabi  
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada yuksalish sari odimlayotgan bir davrda mustaqil diyorimizga milliy g'ururi baland , vatanni sevadigan va ardoqlaydigan, yoshlarni ta'lif-tarbiyasi.Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy va samarali usullari to'g'risida fikr mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lif va tarbiya, boshlang'ich sinf o'quvchilari, o'zbek millati

### KIRISH

Davr ta'lif sohasiga, jumladan, boshlang'ich ta'lif oldiga ijtimoiy hayotning hozirgi talablariga javob beradigan , har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'lif jarayonini tashkil etish vazifasi hamda ta'lif va tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan boshlang'ich ta'lif jarayonini alohida mas'uliyatga egaligi sir emas.

“Avesto” hozirgi o'zbek millati, uning etnik ongi va o'ziga xosligining ildizlarini vujudga keltirgan davr (VII asrgacha) uchun qoidalar va qonunlarning to'plami hisoblangan.

Mazkur davr o'zbeklarining milliy xarakterini shakllantirgan.”Avesto”da ta'lif va tarbiya quyidagilarni o'z ichiga olgan:

diniy va axloqiy tarbiya;  
jismoniy tarbiya;  
o'qish va yozishga o'rgatish.

Bu davrda o'qitish jarayonida hamkorlik qoidalariga alohida e'tibor berilgan, ko'rgazmali qurollardan, hikoya qilish va suhbat usullaridan keng foydalanilgan.

Darsda o'quvchilarining o'tilgan mashg'ulotni shovqinsiz takrorlash talab qilingan. Bolalarda ilk yoshlikdan mehnatsevarlik va pedagogika ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor berilgan hamda maishiy mehnat turlariga o'rgatilgan.

Kishilar ongiga ma'lumotlilik orqali yaxshiroq kun kechirish g'oyalari singdirilgan. Bu esa o'z navbatida “maktab” va muallim mavqeini yanada mustahkamlagan.

Abu Nasr Forobi (873-950) jamiyat taraqqiyoti qonunlarini va inson kamoloti bosqichlarini, uni yashash jarayonida baxt-saodatga erishuv yo'llarini o'zining mashhur asari “Fozil odamlar shahri”da bayon etadi.

Forobiyning o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, ustoz va shogird faoliyati haqida shaxsga qo'yiladigan talablar, insonlar jamoasidagi o'zaro hamjihatlik, yordam, inson kamoloti va uning jamiyatdagi o'rni tog'risidagi g'oyalari hozirgi o'quv-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishga, ustoz va shogird hamkorlik munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yishga, yoshlarda kasbiy va shaxsiy fazilatlarning shakllanishida g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

Beruniy o'zining didaktik qarashlarida tabiat, jamiyat hodisalariga, turmush voqealariga xolisona baho berish – inson tabiatini anglovchi omil ekanligini ta'kidlab, har bir inson o'z qalbining farmoyishiga ko'ra, ezgulikka intilishi sun'iy obro', Shuhrat qozonishi uchun muruvvat ko'rsatmasligi kerakligini undaydi.

U har bir narsani aniq, sinchiklab o'rganish bilish va shundan so'nggina bir xulosaga kelish kerakligi va bu o'rinda, ayniqla, tajribaga asoslanishni alohida uqtiradi, nodonlik, qalloblik, erinchoqlik, ilmsizlik va sun'iy e'tiqodni tanqid qiladi.

YOsh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda, bolalarning talim- tarbiyasi xal qiluvchi axamiyatga ega. Hozirgi kunda ilmiy va metodik adabiyotlarda yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim tarbiya berishda ko'zlangan maqsadga erishishni to'la kafolatlashi ta'kidlanmoqda.

Ta'limning asosiy vazifasi ham o'quvchilarning kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan foydalanishga o'rgatishdan iborat.

Shubhasiz, bunday avlodni voyaga yetkazish mamlakatimizda ustuvor soha etib belgilandi hamda pedagoglarning oldiga qo'yilgan asosiy va sharafli vazifalardan biri etib belgilandi.

Ta'kidlash joizki, bunday sharafli va mas'uliyatli vazifani bajarish, ya'ni fundamentni mustahkam qo'yish boshlang'ich sinf zimmasiga yuklatildi.

Ta'lim tizimining har bir bosqichi kabi boshlang'ich ta'lim DTS ta'lim mazmuni negizini o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini hamda o'quvchilar tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni o'zida ifodalaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini DTS talablari darajasida yetuk mutaxassis qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarning barchasida deyarli yangi matnlar ustida ish olib boriladi.

Bolaning ongi, asosan, 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, ayni shu davrda uning ong va shuurida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi.

Bola ko'rganlarini rasmda tasvirlay olsa, so'z bilan ifodalay olsa, qo'shiq qilib kuylay olsa uning ongi, tafakkuri rivojlanadi, lug'ati boyib, nutqi o'sadi.

Shuning uchun bola maktabga kelguncha 10-15 ta she'r, topishmoq, maqol, tez aytishlarni bilishi joizdir.

**Biz quyidagilarni tavsiya qilamiz:** hozirgi kunda boshlang'ich sinflarni

o'qitishda katta kuch va bilim talab etiladi.O'sib kelayotgan yosh avlodni zamonaviy va samarali usullar bilan ularga berilayotgan bilimlarni takomillashtirish zarurdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga individual yondashish, ayniqsa, katta samara beradi. Individual shug'ullanganda boladagi ulkan imkoniyat va qobiliyatlarining sirlari va eshiklari ochiladi.

Ta'bir joiz bolsa, ana shunday mustaqil fikrlash mohiyati boshlang'ich sinflardayoq o'quvchilarga singdirilishi istiqlol davri maktab darsliklarining yangi avlodiga xos xususiyatdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. L.Beknazarova.“O'qituvchi va o'quvchi hamkorligining psixologik xususiyatlari” Toshkent 2008 yil
2. Malla Ochilov. “Muallim – qalb me’mori” 2001 yil